

STOL TETRI UCHUN PERSONAJLAR YASASH VA UNI SAHNALASHTIRISH

Tuychiyeva Xusnida Toirjonovna

Asaka pedagogika kolleji o'qituvchisi

Annotation: ushbu maqolada bolalar rivojlanishida teatr faoliyatining roli, stol teatri mazmuni, turlari, teatr personajlarini yasash hamda sahnalashtirish xususidagi fikrlar o'rinni olgan.

Kalit so'zlar: teatr, stol teatri, o'yin, rol, syujet, shirma, origami.

Аннотация: В этой статье рассматривается роль театральной деятельности в развитии детей, содержание, виды настольного театра, изготовление театральных персонажей и постановка.

Ключевые слова: театр, настольный театр, игра, роль, сюжет, ширма, оригами.

Annotation: This article covers the role of theatrical activities in the development of children, the content, types of table theater, the creation and staging of theatrical characters.

Keywords: theater, table theater, game, role, plot, slap, origami.

KIRISH

Bugun biz uchun birinchi o'rinda bolalarimizning ma'nnaviyati, bilimi, sog'ligi. Shuning uchun davlat tomonidan maktabgacha ta'limga katta e'tibor berilyapti va bu hali boshlanishi. Sizlarning vazifangiz bolalarning ko'zidagi nurni ilg'ab olish, ularga yaxshi tarbiya berish, degan edi- Shavkat Mirziyoyev.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarga muvofiq aholining hayot darajasini yanada yuksaltirish, ta'lim sifatini ilg'or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish hamda kambag'allikni qisqartirish borasidagi islohotlarimizni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida ta'limga alohida e'tiboq qaratib kelinmoqda. Bu islohotlar avvalo maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab ostonasidan boshlanmoqda. Buni Andijonda islohotlar misolida ham ko'rish mumkin.

Prezident Andijon viloyatidagi "Yangi avlod" ta'lim klasteriga tashrifida ta'lim uchun keltiriladigan uskunalar uchun bojxona to'lovini bekor qilish haqida topshiriq berdi.

"Ta'lim uchun keltirilayotgan uskunalar, jihozlar va mahsulotlar bojxona to'lovidan ozod etiladi. Buning uchun alohida qonun kiritamiz. Bunday turdag'i

mahsulotlarni xorijdan olib kelish va respublikamizga kiritishda muammolar bo‘lmasligi kerak”, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ma'lumot uchun, ta'lim klasteri mактабгача ta'lim, umumiyl o‘rta ta'lim va olyi ta'limni o‘zida jamlaydigan yangi turdagи ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Kelgusi yillarda bog‘cha yetarli bo‘lmagan 131 ta mahallada 1,5 mingta davlat va xususiy bog‘chalar barpo etiladi, 210 ta bog‘chaning quvvatlari oshiriladi.

Natijada, qo‘srimcha 90 mingta bola uchun mактабгача ta'lim imkoniyati yaratilib, qamrov 100%ga yetkaziladi.

“Ilmga chanqoq viloyat yoshlari uchun 6 ta yangi oliygoh tashkil etilib, ularda 30 dan ortiq yangi yo‘nalishlar ochiladi. Bular hisobidan, olyi ta'limda qamrov hozirgi 30 foizdan 50 foizga yetkaziladi. Niyatim – O‘zbekistonдagi barcha qizlar bilimli va o‘qimishli bo‘lishi kerak”, – deb fikr bildirgan edi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi «Mактабгача va mакtab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni qabul qilindi. Shuni aytishimiz joizki, 2016-yil 29-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021-yillarda Maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida» gi qarori hamda, maktabgacha ta`lim muassasasi faoliyatini tartibga solish uchun bevosita xizmat qiluvchi «Ilk qadam» Dasturi qabul qilindi. Mazkur hujjatlar uzlusiz ta`lim tizimining ilk bo`g`inini yanada takomillashtirish va yangi bosqichga ko`tarishga, bolalarimizni sog`lom va barkamol bo`lib voyaga yetishlari uchun xizmat qiladi.

Zero, O‘zbekiston kelajagi biz tarbiyalayotgan yosh avlodning yuksak kamoloti, aql-u zakovatiga bog`liq.

Mактабгача ta`lim tashkiotida ta`lim-tarbiy ishlari olib boriladiga dasturlarda, maktabgacha ta`limning davlat standartida ham birinchi navbatda ijodiy rivojlangan erkin fikrlovchi barkamol avlodni tarbiyalash vazifasi qo‘yilgan. Bunda esa albatta bola ijodiy qobiliyatini rivojlantirish va ochish muhimdir. Xuddi shu vazifalarni samarali tashkil etishda bolalar uchun barcha markazlarni va tarbiya jarayonlarini o‘zida jamlay oladigan teatr faoliyatining roli katta. Chunki teatr faoliyati orqali bola barcha faoliyat markazida ishlay oladi, tarbiya turlarini egallay oladi. Bola ertak eshtadi, so‘zlaydi-nutqi rivojlanadi, axloqiy tarbiyasi ortadi, personaj va qahramonlarni yasaydi, chizadi, qirqadi - mehnat tarbiyasi rivojlanadi, barmoqlari harakati orqali qo‘l motorikasi rivojlanadi, mehnat, jismoniy tarbiya estetik tarbiya shakllanib boraveradi.

Teatr faoliyati bolalar ijodiyotining eng keng tarqalgan turidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun har bir adabiy asar yoki ertak har doim axloqiy yo‘nalishga ega (do‘stlik, mehr-oqibat, halollik, jasorat va boshqalar), ular tufayli ijtimoiy xatti-harakatlar ko‘nikmalarini shakllantirish tajribasini shakllantiradi. Ertaklar tufayli bola

dunyoni nafaqat aqli bilan, balki qalb bilan ham o'rganadi. Va nafaqat biladi, balki yaxshilikka ham, yomonga ham o'z munosabatini bildiradi. Sevimli qahramonlar ideallariga aylanishadi. Aynan bolaning qahramonlarga taqlid qilish qobiliyati tarbiyachi-pedagoglarga teatr faoliyati orqali bolalarga ijobjiy ta'sir ko'rsatishga imkon beradi Aynan teatr faoliyati bolaga muammolarni personaj orqali bilvosita hal qilishga imkon beradi. Bu uyatchanlikni yengishga, o'ziga ishonchni ortishiga olib keladi. U o'yin bilan bog'liq bo'lganligi sababli bola shaxsiga yaqin va tushunarli, chunki u bola tabiatida o'z-o'zidan aks ettiriladi. Teatr o'yinlari qobiliyatlarni rivojlantiradi, umumiyl rivojlanishga yordam beradi, qiziquvchanlikni namoyon qiladi, yangi narsalarni o'rghanishga intiladi, ma'lumot va yangi usullarni o'zlashtirish, fikrlashni rivojlantiradi, qat'iyatlilikni shakllantiradi. Bundan tashqari, ushbu o'yinlar ijodiy qobiliyatlarni va ma'naviy ehtiyojlarni rivojlantiradi, o'ziga bo'lgan hurmatni oshiradi.

ASOSIY QISM

Stol teatrida tomoshaning barcha personajlari va dekaratsiyalari stol ustiga joylashtiriladi. Stol teatri o'yinchoqlari va dekaratsiya jihozlari nima materialdan yasalganligiga ko'ra turlarga ajratiladi.

Yumshoq o'yinchoqlar orqali stol teatri tashkil etish eng qulay hisoblanadi. Yumshoq o'yinchoqlar bunda korxonalar tomonidan tayyorlangan, bozorlar, do'konlarda sotiladigan o'yinchoqlar yordamida tashkil etilishi tushuniladi. Bu o'yinchoqlarni do'konlardan xarid qilish yoki tikib tayyorlab olish mumkin.



Tabiiy materiallar: qarag'ay g'uddalaridan, yog'ochdan, paxtadan, chig'anoqlardan urug'- mevalardan va shu kabi tabiatda bor bo'lgan materallardan foydalanib qo'g'irchoqlar yasaladi. Bundan tashqari kerakli jihozlarni ham yasash mumkin. Yasalgan o'yinchoqlar orqali qo'g'irchoq teatri tomoshalari ishlanadi.

Yassi shakldagi o'yinchoqlar: plastilin, loydan, xamirdan yassi(pachoq) shaklda tayyorlanadi. Bundan tashqari karton qog'oz, yupqa yog'och fanerlardan yasaladi. Bu o'yinchoqlar stolda tik turishi uchun pastiga moslama-taglik tayyorlanadi.



Uy-ro'zgor buyumlaridan: turli qoshiqlar, tayoqchalar, choynak-piyolalar, kir qistirgichlar, stakanlar, likopchalar, bankalar, bakallar, bir martalik ishlataladigan idishlardan qo‘g‘irchoq teatri persojanlarini yasab foydalaniladi.

Geometrik figuralar: konus, silindr shaklida tayyorlangan o‘yinchoqlar yordamida stol teatrini tashkil etish juda qulay. Stol teatri mакtabgacha ta’lim tashkilotlarida eng ko‘p foydalaniladi va o‘yinchoqlarni yasash osonligi bilan ham ajralib turadi.



Origami: Origami (qog‘ozni buklasb yasash) usulida yashalgan o‘yinchoqlar hisoblanadi. Origami yaponcha so‘z bo‘lib, bu qog‘ozni buklab yasash san’ati hisoblanadi. Bu san’at Yaponiyada paydo bo‘lgan. Origamining oddiy va murakkab yasash usullaridan foydalanib o‘yinchoqlar va sahna dekaratsiyalarini tayyorlab olib, stolda bolalar uchun tomoshalar tashkil etish, ularni quvontiradi, zavqlantiradi, o‘ylantiradi, fikr-mulohaza yuritishga undaydi.



Qo‘g‘irchoq tomoshalari bolalardagi turli salbiy ruhiy holatlarni bartaraf etadi va davolaydi.

Tashlandiq materiallardan yasalgan o‘yinchoqlar yordamida stol teatri tashkil etish juda kamchiqim bo‘ladi, lekin bunda tozalikka - gigienaga qat’iy e’tibor beriladi.

Idishlarning yuza va ichki qismlari xlorli eritmada yuviladi. Masalan: tashlandiq disklar, korobkalar, bakalashkalar, idishlar va boshqalar.



Stol teatrining bir necha turi mayjud: birida pesa oddiy sahnada pardasiz shirmada, boshqasi qutichaga o‘xshash sahnada (karton teatr), uchinchisi yassi teatrda, sahna ikki bo‘lak kartondan qilinadi. Bu teatrlardagi «artistlar» qo‘l bilan, tagliklar, sim va magnit orqali turlichalar harakat qiladi. Shakllarning tuzilishi ham turlichadir.

Ish ertak yoki masal tanlashdan boshlanadi, so‘ngra unga mos personajlar tayyorlanadi. Jonivorlar shakllarini bolalar badiiy kitoblardan kalkaga ko‘chirishlari mumkin. Kalkadagi rasmni nusxa qog‘oz yordamida ikkita oq qog‘ozga tushiriladi. Bu rasmlarni rangli qalam bilan bo‘yab, bittasini kartonga yopishtiriladi va kartonni shu rasm konturi bo‘ylab qirqiladi. Kartonning ikkinchi tomoniga ikkinchi rasm yopishtiriladi, shu bilan figura tayyor hisoblanadi. Shundan so‘ng yarimta g‘altak va cho‘p orqali balandligi 9-10 sm bo‘lgan taglik tayyorlanadi. Cho‘pning uchiga figura o‘rnataladi, g‘altak yiqilib tushmasligi uchun uning tagiga doira qilib qirqilgan karton yopishtiriladi.

Sahna-shirma figuraning tagligi ko‘rinmasligi uchun butunlikda qilinadi. Shirmanni bo‘yash yoki unga rangli qog‘oz yopishtirish kerak. Shirmadan 20-22 sm oraliq dekoratsiya o‘rnataladi. Agarda o‘rmon, dala, daryo, tog‘larni tasvirlash lozim bo‘lsa, muvofiq keluvchi suratni topib, unga oq ramka qilish, rasmni kartonga yopishtirish kerak. Dekoratsiyani yarim doira shaklida egish ham mumkin. Sahna-shirma stol ustiga qo‘yiladi, uning orqasida esa figuralarni yurgazadigan va ular uchun gapiradigan o‘quvchilar turadi. Agarda pesa davomida dekoratsiya o‘zgarib turishi kerak bo‘lsa, kitob sifatli qilib birlashtirilgan kartonga yopishtirilishi lozim. Uning har bir sahifasida bitta dekoratsiya bo‘ladi. Masalan, agar quyonni yasash kerak bo‘lsa, avval butun figurani, so‘ngra uning oldingi oyog‘ini bir oz uzunroq yasab qirqib olinadi. Bu old oyoqqa sim o‘tkaziladi. U mana shu sim vositasida boshqariladi. Tayyorlab qo‘yilgan old oyoqqa teshik qilinib ip o‘tkaziladi, ipning bir uchi oyoqqa bir parcha qog‘oz bilan tutashtiriladi va ipning ikkinchi uchi figuradan o‘tkazilib tarangroq qilib tortiladi va figuraning ich tomoniga yopishtirib qo‘yiladi.

Karton teatrning jihozlari. Karton teatrda kartondan yasalgan yassi va hajmli qo‘g‘irchoq figuralar ishtirok etadi. Bir tomonlama shakllar ip, sim va shu kabilar yordamida faqat bir tomonga harakat qiladi. Karton teatrda yuqoridan turib ip, sim bilan boshqariladigan shakllar ham qatnashadi, ular yengil harakat qiladilar, burila oladilar. Saxna uch bo‘lak karton yoki fanerdan yasaladi. Saxnaning asosiy qismlari: orqa devor, pol va oldi peshtoqli devordir. Devorlarga ikki tomondan karton polosalar yopishtiriladi, bu polosalarga dekoratsiyalar osiladi. Dekoratsiyalarni ularning o‘zlaridan kattaroq kartonga yopishtirish kerak, chunki ularda osgichlar qirqiladi. Pardaning rasmi ham o‘zidan kattaroq kartonga yopishtiriladi, bu uni ko‘tarish va tushirishga qulaydir. Ko‘pgina spektakllar uchun harakatlanuvchi dekoratsiyalar kerak bo‘ladi. Bunday dekoratsiya shakllarning tez harakat qilayotganligini bildirish uchun qo‘llaniladi. Harakatlanuvchi dekoratsiya 3-4 metrli qog‘oz lentadan ishlanib, orqa devorga qilingan teshikdan o‘tkaziladi va kerak vaqtida tortib, harakatga keltiriladi. Aytaylik, figura chap tomonga harakat qildirilmoqchi bo‘lsa, dekoratsiya o‘ng tomonga tortilib tez harakat qilayotgandek tasavvur hosil qilinadi. Sahna boshqacha qurilishi ham mumkin, bunday holda uning old qismi trilyajga o‘xshaydi. Unda peshtoq-sahna oynasi qirqiladi. Bunday holda oyna orqasida undan 2-3 sm oraliqda ingichka dumaloq cho‘p o‘rnatiladi. 71 Cho‘pni o‘rnatishdan oldin unga 10 tacha sim aylanalar kirgizilib, ularga suriladigan parda o‘rnatiladi. Parda burma bo‘lishi uchun kengroq bo‘lishi kerak. Punktir bilan agarda ijrochilarning qo‘lini yashirishning xojati bo‘lmasa, olib tashlanishi oson 9-10 smli bo‘lgan taxtacha ko‘rsatilgan. Sahna bunday qurilganda dekoratsiyalar ko‘p qavatli parda ko‘rinishiga ega bo‘ladi yoki karton doiraga joylashadi. Bu doira ingichka mixda aylanib, dekoratsiyani tezda almashtirish, ba’zi hollarda harakatlanuvchi dekoratsiyani ko‘rsatish imkonini beradi.

Dekoratsiyalarning tez almashishi uchun ularni kanselyariya nakolkasiga o‘xhash vertushkaga o‘rnatiladi. Bu doira taxtaga o‘rnatilgan bir bo‘lak yo‘g‘on simdir. Doira yoki vetushka orqasiga doka yoki tyul tortilgan uch ost ramkadan iborat parda joylanadi. Doka ko‘k yoki och ko‘k rangga bo‘yaladi. Bunday to‘sqidan ijrochilar saxnani bemalol ko‘rib tura oladilar va shakllarni ishonch bilan boshqara oladilar. Sahnani yoritish katta ahamiyatga egadir. Ularni shunday joylashtirish kerakki, ular saxnani yoritsin-u nuri tomoshabinlarga tushmasin. Musiqa barcha teatr postanovkalarining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki, spektakl musiqali kirishdan boshlanadi. Musiqali tanaffus vaqtida dekoratsiya almashadi. Tovush va yorug‘lik effekti bilan birikkan musiqa «Fonus xayol» teatrida ham, stol teatrida ham mukammal badiiy tasvirni yaratish imkonini beradi. Bu teatrlarda ovozga taqlid qilish, xo‘rozning qichqirishi, mushukning miyovlashi, ayiqning o‘kirishi hamda shovqin effektlari-yog‘ayotgan yomg‘ir ovozi, parovozning pishillashi va shu kabilardan foydalaniladi.

XULOSA

Sahnalashtirish faoliyatida qatnashish orqali bolalar atrof-olamdagি dunyonи rang-barang tasvirlar va turli xil tovushlar yordamida taniyidilar, mohirlik bilan yaratilgan savollar esa ularni tahlil qilish, xulosalar va umumlashtiruvlar berishga undaydi. Qahramonlarning ifodali replikatsiyalari va shaxsiy mulohazalari orqali bolalarning so‘z boyligi asta-sekin gavdalanadi. Bolaning ijro etayotgan roli, ayniqsa boshqa personajlar bilan bo‘ladigan suhbati uning aniq, ravshan va tushunarli so‘zlashishiga majbur etadi. Shunday ekan, sahnalashtirish faoliyati ifodali nutq hamda intellektual va badiiy-estetik tarbiyaning shakllanishiga taalluqli bo‘lgan ko‘pgina pedagogik masalalarni hal etish imkonini beradi. Shuningdek, u bolaning sezgi, his-tuyg‘ulari namoyon bo‘lishida beqiyos manba hisoblanadi, ma’naviy boyligini oshiradi.

Demak, sahnalashtirish faoliyati bolaning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishda zarur bo‘lgan shart-sharoit, ya’ni empatiyaning rivojlanishida muhim vosita hisoblanadi.

Adabiyotlarda ta’kidlanganidek, empatiyaning asosi – insonning emotsiyonal holatini uning yuz ifodasi, ifodali harakatlari va nutqi yordamida bila olishi, o‘zini har qanday holatda ham boshqalarning o‘rniga qo‘ya olishi va ko‘maklashuvning adekvat vositalarini topa olishidir. “Birovning xursandchiligidan xursand bo‘lish va birovning qayg‘usiga sherik bo‘lish uchun tasavvur orqali boshqa kishining holatiga o‘tishni bilishi va fikran uning o‘rnida bo‘la olishi kerak”. Bu esa, jamiyatda muayyan darajadagi aloqalar mavjudligini anglatadi. Sahnalashtirish faoliyati har qaysi adabiy asar yoki ertak axloqiy yo‘nalishga ega ekanligi sababli xulq-atvorning ijtimoiy ko‘nikmalar tajribasini shakllantirishga imkon beradi. Pirovardida, bola olamni aql va yurak bilan anglaydi, yaxshilik va yomonlikka nisbatan o‘z fikrini bildiradi. Sevimli qahramonlarga taqlid qilish va tenglashish uchun namuna bo‘lib qoladi. Bolaning sevimli obraziga nisbatan aynan shunday tenglashuv qobiliyati pedagoglarga sahnalashtirish faoliyati orqali bolalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni 2013.
2. Kayumova N. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013.
3. Nurmatova M.Sh., Xasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi. “Sho‘lpon” T.:2010y.
4. Namangan davlat universiteti Ijtimoiy-madaniy faoliyat yo‘nalishi talabalari uchun “Teatr tarixi” fanidan ma’ruzalar matni Namangan. 2014-yil, 21-bet.
5. Mirsaidova N., O’taganov R. “Qo‘g‘irchoq boshqarish asoslari”(qo‘lqopli qo‘g‘irchoq) nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanma Toshkent-2015.

6. T.N.Karamanenko.Yu.G.Karamanenko. Kukolniy teatr doshkolnikam. M.: «Prosvehenie» 1982.
7. M.A.Gusakova. Applikatsiya. M., «Prosvechenie» 1977.
8. Ye.A.Antipova. Maktabgacha ta'lim muassasasida teatrlashtirilgan faoliyat. – M.:TS «Sfera», 2006.
9. M.D.Maxanyova. Maktabgacha ta'lim muassasasida teatrlashtirilgan faoliyat darslari. –M.: TS «Sfera», 2007.